



## TO'RA SULAYMON SHE'RIYATINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI

**Xakimjonova Rashida Shavkat qizi**  
Guliston davlat universiteti (O'zbekiston)  
E-mail: hakimjonovarashida@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada To'ra Sulaymon she'riyati lingvokulturologik aspektda tahlil qilinadi. Shoir ijodidagi milliy tafakkur, xalqona obrazlar, metaforik ifodalar hamda madaniy kodlarning badiiy nutqda qanday namoyon bo'lishi ko'rib chiqilgan. Shoirning she'rlari misolida xalq og'zaki ijodi, tarixiy va diniy qadriyatlar, etnografik unsurlar til birliklari orqali ifodalangani aniqlanadi. Shuningdek, To'ra Sulaymon poetikasida lingvokulturologik birliklar nafaqat estetik maqsadga, balki milliy o'zlikni anglash va uni avlodlarga yetkazish vazifasiga xizmat qilishi ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, folklor obrazlari, milliy tafakkur, lingvomadaniyat, pretsedent, pretsedent birliklar, pretsedent nomlar, antroposentrik, lingvomadaniy birliklar, lingvokulturologiya, metafora, metonimiya, mentalitet, mental.

**Аннотация.** В данной статье поэзия Тура Сулеймона рассматривается в лингвокультурологическом аспекте. Анализируется проявление национального мышления, народных образов, метафорических выражений и культурных кодов в художественном дискурсе. В ходе исследования выявлено, что в стихах поэта через языковые единицы отражаются элементы устного народного творчества, исторические и религиозные ценности, этнографические особенности. Кроме того, научно обосновано, что лингвокультурологические единицы в поэтике Тура Сулеймона служат не только эстетическим целям, но и выполняют функцию осмысления национальной идентичности и передачи её будущим поколениям.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, фольклорные образы, национальное мышление, лингвокультура, прецедент, прецедентные единицы, прецедентные имена, антропоцентрический, лингвокультурные единицы, лингвокультурология, метафора, метонимия, менталитет, ментальный.

**Annotation.** This article analyzes To'ra Sulaymon's poetry from a linguoculturological perspective. It examines how national thinking, folk imagery, metaphorical expressions, and cultural codes are manifested in the poetic discourse. The study reveals that in the poet's works, elements of oral folklore, historical and religious values, as well as ethnographic features are expressed through linguistic units. Moreover, it is scientifically substantiated that the linguoculturological units in To'ra Sulaymon's poetics serve not only an aesthetic function but also the purpose of understanding national identity and transmitting it to future generations.

**Key words:** oral folk art, folkloric images, national mentality, linguoculture, precedent, precedent units, precedent names, anthropocentric, linguocultural units, linguoculturology, metaphor, metonymy, mentality, mental.

### KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy adabiyot va madaniyat namoyandalarining ijodini lingvokulturologik nuqtayi nazardan tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Zero, badiiy matn nafaqat estetik hodisa, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va mentalitetini o'zida mujassam etgan ijtimoiy-madaniy



fenomen (hodisa) sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, o'zbek she'riyati tarixida salmoqli o'rin egallagan To'ra Sulaymon ijodi milliy tafakkur, xalqona obrazlar va madaniy kodlarning yorqin ifodasi bo'lib, ularni lingvokulturologik jihatdan o'rganish muhim ilmiy natijalar beradi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan fan bo'lib, xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlari, madaniy tajribasi til birliklari orqali qanday aks etishini o'rganadi. Adabiy matn esa ushbu jarayonning eng yorqin ifodalaridan biridir. She'riy matnda xalqona obrazlar, maqol-iboralardan foydalanish, ramz va metaforalar yaratish orqali nafaqat badiiy-estetik maqsad amalga oshadi, balki madaniy kodlar ham avlodan-avlodga yetkaziladi. To'ra Sulaymonning she'riyati xalq ruhiyatiga chuqur singib ketgan obrazlarga boy. Shoir xalqona so'zlashuv, og'zaki ijod unsurlaridan keng foydalanadi. Masalan, uning ko'plab she'rlarida xalq maqollari, hikmatli so'zlar qayta badiiy talqinda namoyon bo'ladi. Bunday birliklar lingvokulturologik nuqtayi nazardan xalq tafakkurining badiiy matndagi "aks sadosi" hisoblanadi.

Shoir metaforalardan foydalanishda ham milliy tafakkur va madaniy kodlarga tayanadi. Tabiat obrazlari, qishloq hayoti, xalq turmushi bilan bog'liq tasvirlar uning she'riyatida tez-tez uchraydi. Bu obrazlar orqali shoir milliy mentalitetni badiiy-estetik shaklda ifodalaydi.

Shoirning "Tavallo" she'rida  
*Nelardandir ko'ngil bo'lib g'ash,  
Ham egilib, bu egilmas bosh,  
Ko'zlarimda qalqib tursa yosh,  
Bu holimga berolmay bardosh,  
Bir mushtipar Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir [1].*

She'rda ona obrazi alohida o'rin tutadi. *Mushtipar ona* iborasi o'zbek xalq tafakkurida juda kuchli ma'noga ega bo'lib, u fidoyilik, mehr-muhabbat va farzand taqdiriga befarq bo'lmaslik ramzi sifatida qaraladi. Bu xalqning qadimiy mentalitetida onani eng muqaddas zot sifatida ko'rish bilan bog'liq. *Mushtipar* so'zi o'zbek madaniyatida farzand dardida kuygan, iztirob chekkan ona ma'nosini anglatadi. Bu xalq og'zaki ijodida, dostonlarda va maqollarda tez-tez uchraydigan obrazdir. Ona ko'z yoshi milliy madaniyatimizda samimiylik, chin dard va ichki kechinmalar belgisi sifatida tushuniladi.

Shoir *Onam yig'laydir* va *qolganlari yolg'on yig'laydir* misralari orqali chin va soxta iztirobni farqlaydi. Bu xalqona qarashga tayanadi: o'zbek mentalitetida ona ko'z yoshi hech qachon yolg'on bo'lmaydi, u har doim samimiylik ramzi sifatida



qabul qilinadi. *Egilib, bu egilmas bosh* ifodasi esa milliy xarakterdagi qaysarlik, matonat va bardosh timsolidir.

*Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan,  
Qora qozon qolsa qaynovdan,  
Ham ayrilib o'lja, ulovdan,  
Qarzga botar bo'lsam birovdan,  
Taskin berib Onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir [2].*

*Qora qozon* bu oddiygina osh pishirish vositasi emas, balki uy-ro'zg'or, tirikchilik, oila ta'minoti ramzi. U metafora sifatida uyda qozon qaynamasa, hayot to'xtaydi degan majoziy mazmunni beradi. O'zbek madaniyatida qozon qadimdan baraka va birgalik ramzi hisoblanadi.

Ramz tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi:

- 1) ramz – belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy formalashtirishda);
- 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida);
- 3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda);
- 4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistik, semiotika va h.k.) [3].

Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Agarda oddiy belgi insonga ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramzlar orqali bizning ongimizda kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochiladi, aqlga sig'maydigan, g'ayrihuuriy botiniy ma'nolar yuzaga chiqadi [4].

*Qora* rang esa xalq tilida kundalik, oddiy, og'ir mehnatga doir narsalarni bildiradi. Shuning uchun qora qozon iborasi uy-ro'zg'orning asosiy tayanchi degan ma'noni anglatadi.

*Qozon* qaynamasa tirikchilik buziladi, oilada ochlik va qashshoqlik boshlanadi. Shoir bu metafora orqali oila hayoti, moddiy ta'minot, yashash manbasining uzilib qolishini tasvirlagan. *Qora qozon qolsa qaynovdan* satri o'zida milliy tafakkur, xalqning madaniy xotirasini mujassam etadi. Chunki har bir o'zbekning tasavvurida *qora qozon* yashashning, kun kechirishning timsolidir.

*Ulkan yo'lga chiqdim, yo'limda  
Qaydam, qorli qoyalar bordir.  
O'zligimcha, o'y-xayolimda*



*Qish bilganim, balkim, bahordir...*

*Bahor fasli, bahor nafasi –*

*Yo‘llarimga ko‘p intizordir [5].*

Metafora hayot yo‘li ma‘naviy izlanish yo‘li. O‘zbek xalq ongida hayot ko‘pincha “yo‘l” obrazi orqali ifodalanadi. “*Ulkan yo‘l*” – bu oddiy hayot emas, balki maqsadli, mas‘uliyatli, buyuk niyatlar sari yo‘ldir. Bu obraz xalqning hayotni sinovli, lekin ma‘naviy yuksalishga xizmat qiluvchi jarayon deb tushunishidan dalolat beradi.

“*Qaydam, qorli qoyalar border*” metafora qiyinchiliklar, hayotdagi to‘siqlar, qorli qoyalar - sovuq, tik, yengib bo‘lmasdek tuyulgan to‘siqlar xalq ongida ko‘pincha muammo va sinovlar belgisi. O‘zbek adabiy mentalitetida tog‘ – sabr, bardosh timsoli bo‘lsa, qorli qoyalar undan-da og‘ir sinovlarni bildiradi. Bu obrazlar o‘zlikni topish yo‘lida insonning ichki kurashini anglatadi.

Bu she‘r parchasida To‘ra Sulaymon hayot yo‘lini asosiy metaforik obraz sifatida olib, o‘zining ma‘naviy-axloqiy qarashlarini ifoda etadi. Lingvokulturologik jihatdan yo‘l, manzil, o‘tib borish, orqada qolish kabi birliklar o‘zbek xalq tafakkuri, milliy mentaliteti, ma‘naviy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq.

Ba‘zi mutaxassislar fikricha, “metafora – o‘xshatishning qisqargan shakli”. Professor M.Mirtojiyevning yozishicha, “bu fikr ham o‘rni bilan to‘g‘ri”dir. “Masalan, o‘zbek tilida tokni zararlaydigan oidium kasalligini *kul* so‘zining hosila ma‘nosi ifodalaydi. Uni “kulga o‘xshash kasallik” o‘xshatish qurilmasining qisqargan shakli deyish juda to‘g‘ri bo‘ladi. Bu o‘rinda o‘xshatish qurilmasining faqat kul etaloni butun ma‘nosini o‘zida saqlagan va o‘xshatishning qisqargan shakli – metafora yuzaga kelgan. Ya‘ni buni metaforaning ayrim ko‘rinishi sifatida ko‘rsatish mumkin” [6].

*Yosh boladay tinim bilmasdan,*

*Birda xiyol shoshib boraman.*

*So‘qmoqlarni ko‘zga ilmasdan,*

*Daryo misol toshib boraman.*

*Gohi boqmay oldi-ortimga,*

*O‘z haddimdan oshib boraman [7]...*

Metaforalar “*Yosh boladay tinim bilmasdan*” faoliyat, harakatning jo‘shqinligiga bolaning qiziquvchan va to‘xtovsiz fe‘l-atvori orqali metaforik ta‘rif berilgan.

“*Daryo misol toshib boraman*” ichki kechinmalar, hislar kuchi daryo toshishi orqali ifodalangan. Bu, ehtimol, nazmiy qahramonning hayotdagi izlanishlari, ehtirolari va cheklovlarga bo‘ysunmas harakatlarini anglatadi.



## **XULOSA**

Demak, shoir xalq tilidagi madaniy ramzlarni ijodiy qo'llash orqali o'z asarlarida milliy tafakkur, ijtimoiy hayotdagi dard va quvonchlarni chuqur ifodalashga erishadi. Bu esa metaforalarning nafaqat badiiy-estetik, balki lingvokulturologik ahamiyatini ham yaqqol ko'rsatib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 105-bet.
2. T.Sulaymon. Tanlangan asarlar. "Sharq" Nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020. 105-bet.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология; Учеб пособие для студ. высш. заведений. –М.: Издательский центр Академия, 2001, - С.95.
4. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно\*смысловое пространство языка. Учебное пособие.-М.: Флинта, Наука, 2010, -С.189.
5. To'ra Sulaymon. "Tanlangan asarlar". –Toshkent, 2020. 33-bet.
6. Mirtojdiyev M. "O'zbek tili semasiologiyasi". –Toshkent.: Mumtoz so'z, 2010. 95-bet.
7. To'ra Sulaymon. "Tanlangan asarlar". –Toshkent, 2020. 33-bet.

